

INTELLECTUAL PROPERTY AND ITS PLACE IN THE NATIONAL LEGAL SYSTEM

Xudoyberganov Sharifjon Shokiraliyevich

Kokand State University

Abstract

This article analyzes the following issues from a legal point of view. Changes in the content of property rights in the conditions of market relations, the expansion of the range of property objects, the economic stability of the country, the need for new modern approaches in this area. Creation of legal bases. The need for a new legal consciousness and legal thinking. The concept of intellectual property, its essence, practical importance, its place in the economic development of society.

Key words: Civil legal relations, economic system, law, ownership forms, ownership relations, state, disposal, private property, owner, object, intellectual property rights

INTELLEKTUAL MULK VA UNING MILLIY HUQUQIY TIZIMDAGI O'RNI

Xudoyberganov Sharifjon Shokiraliyevich

Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqola quyidagi masalalarni huquqiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Bozor munosabatlari sharoitida mulk huquqlarining mazmunidagi o'zgarishlar, mulk ob'ektlari doirasining kengayishi, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, bu sohada yangi zamonaviy yondashuvlarga ehtiyoj. Huquqiy asoslarni yaratish. Yangi huquqiy ong va huquqiy fikrlash zarurati. Intellektual mulk tushunchasi, uning mohiyati, amaliy ahamiyati, jamiyatning iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni.

Kalit so'zlar: Fuqarolik huquqiy munosabatlar, iqtisodiy tizim, huquq, mulkchilik shakllari, mulkchilik munosabatlari, davlat, tasarruf, xususiy mulk, mulkdor, obyekt, intellektual mulk huquqlari

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ СОБСТВЕННОСТЬ И ЕЕ МЕСТО В НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРАВОВОЙ СИСТЕМЕ

Худойбергганов Шарифжон Шокиралиевич
Кокандский государственный университет

Аннотация

В статье с правовой точки зрения анализируются следующие вопросы: изменения содержания прав собственности в условиях рыночных отношений, расширение круга объектов собственности, экономическая стабильность страны, необходимость новых современных подходов в этой области. Создание правовых основ. Необходимость нового правового сознания и правового мышления. Понятие интеллектуальной собственности, ее сущность, практическое значение, место в экономическом развитии общества.

Ключевые слова: Гражданско-правовые отношения, экономическая система, право, формы собственности, отношения собственности, государство, распоряжение, частная собственность, собственник, объект, права интеллектуальной собственности

Mamlakatimizda intellektual mulk sohasini rivojlantirish, muallif va boshqa huquq egalarining qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Bunda, mulkni davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususiy mulk va mulkdorlar sinfining shakllanishiga olib keldi. Jumladan, mulkiy huquqlar mazmunining o'zgarishi, mulk ob'ektlari doirasining kengayishiga imkon yaratdi. Natijada, yangi bir tizim – intellektual mulk huquqi oilasi paydo bo'ldi va uning huquqiy asoslari yaratildi. Intellektual mulkni rag'batlantirishga doir normalar Asosiy qonunimizdan ham o'rin

olgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanib, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi va davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qilishi qat’iy belgilab qo‘yilgan[1.33 b.] Bozor iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi va uni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida intellektual mulkni rivojlantirish, uning muhofazasini ta’minlashda huquqiy asoslarini yaratish, xalqaro xamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish mamlakatni rivojlantirishda muhim yo‘nalishlardan biri etib belgilandi. Ushbu sohada, eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunlar doirasida Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga muhim e’tibor qaratildi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlarni amalga oshishida intellektual mulk huquqi tushunchasini fuqarolar ongiga yetkazish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini ochib berish muhim masaladir. Bu borada malakali huquqshunos olimlar, B. Toshev, O. Oqyulov, I. Zokirov, И Рустамбеков, N.Raxmonqulova, A. Ramatov va boshqalar alohida o‘ringa ega.

“Intellektual mulk huquqi O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy salohiyatini kuchaytirish, uni ilmiy-texnikaviy qudratini mustahkamlash, turli mamlakatlar bilan madaniy ma’rifiy hamkorlikni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi huquqiy negiz hisoblanadi”[2.3.b]. Shuningdek, ijodiy faoliyatning moddiy yoki g‘oyaviy ko‘rinishdagi natijalari va ulardan foydalanish bilan bo‘liq bo‘lgan mulkiy huquqlar majmuidir”[3.172.b].

Bu mulk huquqi sof moddiy mulk huquqidan farqli ravishda jamiyatning iqtisodiy, hamda ma’naviy turmushida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Professor I.B. Zokirovning Fuqarolik huquqi asarida [4.13.b] “Intellektual faoliyat ijodiy faoliyat hisoblanib, bu kundalik hollarda aqliy mehnat kishilari, yozuvchilar, shoirlar, oimlar, rassomlar, injinerlar, tehnologlar va boshqalarning faoliyati mahsulidir” deyiladi. Bu natijalar o‘zining yangiligi, yoki o‘ziga hosligi (original), takrorlanmas (unikal) belgilariga ega bo‘ladi. Ma’lumki, insonning intellektual faoliyat natijalari, ularni yaratilish jarayoni va o‘z hususiyati jihatidan odatdagi foydalanib kelinayotgan ashyolardan farq qiladi. Shuning uchun ham ular fuqarolik huquqiy munosabatlarida o‘ziga hos mulk ob’ekti sifatida huquqiy muhofaza talab etadi. Huquqiy normalarda bu obe’ktlarning ifodalanishi nazariya, g‘oya, nomoddiy ko‘rinishda qayt qilinsada, kishilar tomonidan obe’ktiv mavjudligi anglanadi. Shuning uchun ham obe’ktiv shaklda ifodalanigan g‘oya, bilim moddiy eltuvchida, moddiy ifodada, masalan: chizma, maket, apparat, qurilmada mujassamlashgan bo‘lishi mumkin. Biroq bunda g‘oya birlamchi, moddiy asos esa ikkilamcni vazifani bajaradi. Bundan kelib chiqadiki, g‘oya, nazariya shaklidagi intellektual mulk ob’ektlariga nisbatan odatdagi moddiy ashyolarga nisbatan egalik qilinganidek, qoidalar qo‘llanilavermaydi. Intellektual mulk obekti fuqarolik huquqining muhum institutini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1031 moddasidan -1111 moddasigacha belgilangan normalarda intellektual mulk va va uning huquqiy maqomi belgilab qo‘yilgan.[5.76.b]

Ushbu qonunning 1031-moddasiga ko‘ra, intellektual faoliyat natijalariga quyidagilar kiradi:

1.Intellektual faoliyat natijalari:

- fan, adabiyot, san’at asarlari,eshittirish va ko‘rsatuv;
- tashkilotchilarining ijodlari, fonogrammalar va eshittirishlar, ko‘rsatuvlar;
- electron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma’lumot bazalari;

- integral mikrosxemalar topologiyalari, ixtirolar, foydali modellar;
- sanoat namunalari;
- seleksiya yutuqlari;
- oshkor etilmaganahborot, shu jumladan tijorat sirlari;

2. Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining tovarlar, xizmatlarni xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalari:

- firma nomi;
- tovar belgilari;
- tovar ishlab chiqariladigan joy nomi;

Yuqorida ko‘rsatilgan mulk ob‘ektlarini ximoyalash jarayonida quyidagi tushunchalarni bilib olish zarur deb o‘ylaymiz. Aytib o‘tilganidek, intellektual mulk ob‘ektlari ustivorlikda g‘oya, bilim, axborot shaklida namoyon bo‘ladi. Bu ob‘ektlardan shahs va jamiyat iqtisodiy manfaatdorligi yo‘lida bir vaqtning o‘zida cheksiz kishilar foydalanishlari mumkin. Shuning uchun ham, ularga mulk huquqining bemuddatligi xaqidagi qoida qo‘llanilmaydi.[6..468.b] Balki, amal qilish muddati, uni ijtimoiy mullkka aylanib ketish davrigacha qoida tariqasida belgilab qo‘yiladi.

Belgilangan muddat o‘tishi bilan,intellektual mulk egasining mulkka bo‘lgan huquqlari bekor qilinadi. Natijada, asar ijtimoiy mulkka aylanadi. Masalan “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunning 38-moddasiga ko‘ra mualliflik huquqi muallifning (hammuallifning) butun xayoti davomida va u vafot etgach, keying yilning 1-yanvaridan boshlab 50 yil davomida amal qiladi. Ushbu qoida boshqa intellektual mulk turlariga ham o‘z huzusiyatidan kelib chiqib qo‘llaniladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Bugungi kunda intellektual mulk o‘bektlarining huquqiy maqomi, mulk ob‘ektlariga nisbatan qonuniy egalarining vakolatlari hajmi va mazmuni qonunchilikda kengayib, mustahkamlanib bormoqda. Buning yaqqol misoli sifatida yangilanayotgan konstitutsiyaviy normalar qatorida

intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi kafolatlab qo'yilmoqda. Shuning uchun ham, mavjud qonun me'yorlari mazmun-mohiyatini teran anglab yetish zarur ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: 2023. –33 b
- 2.Oqyulov.O. Intellektual mulk huquqiy maqomining nazariy va amaliy muammolari.- T.:2024.-3.b
3. Yuridik atamalar qomusiy lug'ati.-T.: 2003.-172 b
- 4.Zokirov. I.B. Fuqarolik huquqi.-T.: 1996.35-b
5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – T.:14.07.2022-b. 468
6. O'zbekiston Respublikasi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarto'g'risida”gi qonun // 2006-yil 20-iyul, Xalq so'zi.